

OILADA GENDER ROLLAR VA ULARNING BOLA TARBIYASIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

MUSINOVA NOZIRA MIRJADJANOVNA

Buxoro davlat universiteti psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oiladagi gender rollar va ularning bola tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlil qilinadi. An'anaviy va zamonaviy gender tasavvurlari, ota va onaning tarbiyaviy vazifalari, shuningdek, gender rollarning bolada xarakter va ijtimoiy moslashuv shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritiladi. Maqolada zamonaviy oilalarda kuzatilayotgan gender tenglikka oid tendensiyalar va ularning bolalar psixologiyasiga ta'siri misollar bilan ko'rsatilib, ijobiy va salbiy tomonlari muhokama qilinadi. Psixologik yondashuvlar asosida bola shaxsining rivojida gender muhitining o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: gender rollar, oila, tarbiya, psixologik ta'sir, farzand rivoji, an'anaviy qadriyatlar, zamonaviy oila, gender tenglik, ijtimoiy psixologiya, farzand tarbiyasi

Oilaviy hayot har bir insonning jamiyatga moslashuvi, shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanishida asosiy ijtimoiy muhit hisoblanadi. Aynan oilada bolalar ilk bor erkak va ayol rollarini kuzatadi, o'ziga xos jinsiy identifikatsiya shakllanadi. Shu bois, oilada mavjud bo'lган gender rollar va ularning taqsimoti farzand tarbiyasida muhim o'rin tutadi. O'zbek jamiyatida an'anaviy gender rollar chuqur ildiz otgan: erkak – uyning boshlig'i, ayol – oila mehrini tutuvchi sifatida qaraladi. Biroq, zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar, ayollarning faol jamiyatda ishtiroki, erkaklarning bolalar tarbiyasida faolroq bo'lishi bu tasavvurlarni o'zgartirmoqda. Ushbu o'zgarishlar bolalarning ruhiy holatiga, o'zini anglashiga, hayotga bo'lган munosabatiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda? Oilada gender rollarning psixologik xususiyatlari, ularning bolalarning xarakter, emotsional barqarorlik va ijtimoiy faollikka bo'lган ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, sog'lom gender muhitda ulg'aygan bola kelajakda jamiyatga foydali, muvozanatli shaxs sifatida kamol topadi.

Oiladagi muxit unda sodir bo'luvchi turli psixologik hodisalar ma'lum qonunlarga bo'ysunib bu qonunlarning qilishi guruh tarkibiga bog'liqdir. Shu munosabat bilan oila tarkibini guruhiy jarayonlar manbai sifatida maxsus tahlil obyektiga aylantirish zaruriyati tug'iladi. Tarkibiga ko'ra oila klassifikatsiyasi va oilada bo'lib o'tuvchi jarayonlar B.M.Karimovaning "Oilaviy hayot psix uslubidan ko'ra katta guruh ichida amal qiluvchi me'yoriy xulq shakllari ko'proq kuzatiladi.

B.A.Karimova sotsiologik adabiyotlar tahlilidan kelib chiqqan holda a'zolari tarkibiga ko'ra quyidagi oila turlarini farqlab o'tadi: 1.Katta, bo'linmagan oila. Bunday oilada tarkibiga bir necha avlod vakillari kirib ular bir makonda ya'ni bitta hovlida xonadonda birgalikda yashaydilar."Odatda katta oilaning kattasi"bo'ladi, ya'ni,keksa otaxon va onaxon yoki ulardan biri boshqa bir yoki bir nechta er-xotinlar oilasini ularning farzandlari bilan birga boshqarib, "boshini qovushtirib "yashaydi". Etibor berilsa Karimova tomonidan bo'linmagan oilga berilgan tarifda oila boshqaruvi misolida xududimizga xos bo'lgan milliy xususiyatlar alohida ko'rsatib o'tiladi. 2.Nuklear (yaxlit,yadro) oila. Nuklear oila.Bunday oila turi iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlar va yirik shaharlarga xos tuzulmadir. Nuklear oilada odatda 2 avlod vakillari er-xotin va ularning farzandlari istiqomad qiladi. Subyektning oila kabi kichik guruhga a'zoligi tufayli yuzaga keluvchi sotsial identifikatsiya holati jinsiy identifikatsiya jarayoni bilan uyg'unlashib ketadi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishish davomida bola oiladagi o'z jinsiga mansub kattalar xulq atvorini o'ziga namuna qilib oladi.Natijada malum guruh doirasida yashovchi o'xshash statusli a'zolar xulq atvori bir-birinikiga o'xshab boradi. Qarindosh-urug'lari ko'p oilalarni o'z shakli shamoiliga ko'ra katta guruhga o'xshtish mumkin. Natijada bo'linmagan oilada shakllangan bola xulqida shaxsning induvidual uslubidan ko'ra katta guruh ichida amal qiluvchi meyoriy xulq shakllari ko'proq kuzatiladi.Shu sababli ta'lim va tarbiya tizimida psixologik xizmatni tashkil etishda bo'linmagan oilada ulg'ayayotgan shaxsga xos bunday xususiyatlar inobatga olinishi lozim. Gender rollar tushunchasi va ularning tarixiy shakllanishi

Gender — bu insonning ijtimoiy va madaniy jihatdan belgilangan jinsiy roli va xatti-harakatlaridir. Biologik jinsdan farqli ravishda, gender jamiyat tomonidan belgilangan norma, qadriyat va kutishlarga asoslangan. Bu degani, erkak yoki ayol bo'lish nafaqat biologik xususiyat, balki ijtimoiy rolni ham anglatadi. Masalan, jamiyat erkaklardan kuchli, jasur va mustaqil bo'lishni kutsa, ayollardan esa yumshoqlik, mehr, e'tibor talab qiladi. Gender rollar va ularning tarixiy shakllanishi

Tarixan erkaklar va ayollar jamiyatda turli vazifalarni bajargan: erkaklar ov qilish, oilani himoya qilish bilan shug'ullangan bo'lsa, ayollar uyda bolalarni tarbiyalash, ovqat tayyorlash, uy-ro'zg'or ishlari bilan band bo'lgan. Bu rollar asrlar davomida shakllangan va jamiyat ongiga singib ketgan. Natijada, "erkak kuchli bo'lishi kerak", "ayol itoatkor bo'lishi kerak" degan stereotiplar vujudga kelgan. Zamonaviy davrda esa bu rollar asta-sekin o'zgarib bormoqda. Ayollar ilm-fan, siyosat, tadbirkorlikda faol ishtirok etmoqda, erkaklar esa bolalar tarbiyasida va uy ishlarida qatnashmoqda. Bu holat gender rollarning moslashuvchan bo'lishini talab qiladi.

Oiladagi gender rollar: an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar. Ota roli

An'anaviy oilalarda otaning roli – oilaning tayanchi, ta'minotchisi, tartib saqlovchisi sifatida talqin etiladi. Farzand uchun otaning mavjudligi xavfsizlik,

ishonch va barqarorlikni anglatadi. Biroq, faqat moliyaviy tarafdan emas, balki emotsiyal jihatdan ham ota ishtirokchi bo‘lishi farzand rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ona – bu bolaning ilk his-tuyg‘ular olami, mehr va g‘amxo‘rlik manbai. U bolaning hissiy muvozanatini shakllantiruvchi asosiy shaxsdir. Ammo onaning ortiqcha yuklanishi (faqat ona tarbiya uchun mas’ul deb qaralishi) uning ruhiy charchashiga va bolaning ota bilan bog‘lanmasligiga olib keladi. Rollarning zamonaviy almashuvi

Zamonaviy oilalarda gender rollar keskin ajratilmayapti. Erkaklar ham oshpazlik qiladi, bolalarni maktabga olib boradi, ayollar esa iqtisodiy faol bo‘lmoqda. Bu rollarning moslashuvchanligi bolalarga hayotga keng qarash bilan yondashish, har ikki jinsga ham hurmat bilan qarashni o‘rgatadi. Bola tarbiyasiga gender rollarning psixologik ta’siri. Jinsiy identifikatsiya shakllanishi. Bolalar dastlab oilada kim bo‘lishini — erkak yoki ayol sifatida qanday rol egallashini tushunadi. Ota-onaning o‘z rolini qanday bajarishi bolaga “erkak qanday bo‘ladi?”, “ayol qanday bo‘ladi?” degan savollarga javob beradi. Agar ota o‘z rolini passiv bajarsa, bola noto‘g‘ri namuna olishi mumkin. Gender stereotiplari bosimi. “Sen qiz bola bo‘lsang, jim yur”, “Erkak yig‘lamaydi” kabi iboralar bolani o‘zini erkin ifoda etishdan to‘sadi. Bu esa bolada stress, o‘zini qadrsiz his qilish va ruhiy nomutanosiblikka olib keladi. Agar oilada har ikki ota-onsa faol ishtirok etib, o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatda bo‘lsa, bola sog‘lom ijtimoiy muhitda ulg‘ayadi. Bu esa uning kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi. Ijtimoiy psixologik nazariyalar asosida gender muhit tahlili. Amerikalik psixolog Albert Bandura o‘zining ijtimoiy o‘rganish nazariyasida shuni isbotlaganki, insonlar ko‘proq kuzatish orqali o‘rganadi. Bolalar esa ayniqsa ota-onalarining harakatlarini, ularning o‘zaro munosabatini va rollarini kuzatish orqali o‘z xulq-atvorini shakllantiradi. Agar oilada faqat ona bolani parvarish qilsa, bola ayollar tarbiyani, erkaklar esa moliyaviy ta’minotni bajaradi degan tasavvurni oladi. Freyd nazariyasi – Psixoseksual rivojlanish. Z. Freydning nazariyasiga ko‘ra, bola hayotining dastlabki 5 yili jinsiy identifikatsiyaning shakllanishi uchun muhim davrdir. Bu davrda bola onani yoki otani “ideal” sifatida qabul qiladi va o‘zini shunga moslashtirishga harakat qiladi. Gender rollarning noaniqligi bolada identifikatsiya inqirozini keltirib chiqaradi. Koulberg nazariyasi – Aqliy rivojlanish va gender Laurens Koulberg esa bolalarning jinsga oid fikrlari ularning aqliy rivojiga mos tarzda o‘zgarishini aytadi. 3–6 yosh oralig‘ida bola jinsga oid rollarni tushunishni boshlaydi. Shu davrdagi genderga oid signallar, ya’ni “qizlar shunday bo‘ladi”, “o‘g‘il bolalar bunday bo‘lmaydi” degan stereotiplar bolaning o‘z jinsini qanday qabul qilishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Gender nomutanosibligi va ularning salbiy oqibatlari. Agar oilada ota faqat nazorat qiluvchi, ayol esa faqat itoat etuvchi rolida bo‘lsa, bu holat bolada teng huquqlilikka bo‘lgan noto‘g‘ri qarashlarni shakllantiradi. O‘g‘il bolalarda zo‘ravonlik yoki hukmronlik tendensiyalari, qiz bolalarda esa o‘z fikrini bildirishdan qo‘rqish paydo bo‘ladi. Gender

nomutanosibligi bolaning emotsiyal rivojiga salbiy ta'sir qiladi. Bola jinsiy roli bilan bog'liq kutishlarga javob bera olmasa, o'zini "noqulay", "noto'g'ri" deb his qiladi. Bu esa o'z-o'ziga past baho, ichki konfliktlar va hatto depressiyaga olib keladi. Bolalar o'zini anglash jarayonida gender bosimlari bilan to'qnash kelganda, shaxsiy inqirozlar — ya'ni "men qanday bo'lishim kerak?", "men to'g'rimanmi?" kabi savollar bilan qiynaladi. Bunday holatlar ota-onalarning noaniq yoki qattiq gender talablari natijasida yuzaga keladi. Tarbiya jarayonida gender tenglikka erishish yo'llari

Ota-onalarga psixologik tavsiyalar

- Har ikki ota-onsa farzand tarbiyasida faol ishtirok etishi lozim;
- Farzandning jinsiy rolini erkak/ayollik qoidalariga emas, insoniy fazilatlarga asoslab shakllantirish kerak;
- Bolani boshqa jinsdagi qarindoshlarga nisbatan hurmat va empatiyaga o'rnatish zarur.

Ta'lim tizimida gender yondashuv. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ham o'g'il va qiz bolalar teng imkoniyatga ega bo'lishi, ularning o'zini ifoda etishlariga to'siqlar bo'lmashligi muhim. O'quv dasturlari va tarbiyaviy ishlar gender muvozanatiga asoslangan bo'lishi kerak. Ko'plab oilalarda hanuzgacha an'anaviy gender rollar ustuvor. Ota moddiy ta'minotchi, ona esa tarbiyachi sifatida qaraladi. Shu sababli, ko'p bolalarda jinsiy rollarga moslashish bosqichi biryoqlama shakllanadi.

So'rovnama natijalari

2023 yilda 100 nafar ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada:

- 72% ota-onalar "farzandlar jinsiga qarab tarbiya berilishi kerak" deb hisoblagan;
- 63% bolalar o'z ota-onasidan faqat an'anaviy gender modelini ko'rgan;
- 81% holatda bolalar erkaklar ustun rol egallashi kerak degan fikrda bo'lgan.

Bu raqamlar bolalarning kelajakdag'i shaxsiyati va jamiyatdag'i roli qanday shakllanayotganini ko'rsatadi.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, oilada gender rollar va ularning bola tarbiyasiga psixologik ta'siri murakkab, lekin o'ta muhim mavzudir. Ota va onaning harakati, ular egallagan rollar farzand uchun asosiy namuna bo'lib xizmat qiladi.

Sog'lom gender muhit, rollarning muvozanatli taqsimlanishi va ijobjiy emotsiyal aloqa bolalarning sog'lom shaxs bo'lib kamol topishini ta'minlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Bandura A. (1977). Social Learning Theory. Prentice-Hall.
2. Freud Z. (1905). Three Essays on the Theory of Sexuality.
3. Kohlberg L. (1966). Cognitive-Developmental Analysis of Children's Sex-Role Concepts and Attitudes.
4. Xaydarov N., Sharipova M. (2022). Psixologiya asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
5. Gender va Oila instituti hisobotlari, 2023 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.